

# AVARIYA-QUTQARUV ISHLARI VAQTIDA FOYDALANILADIGAN HIMOYA INSHOOTLARI

Mo‘minjonov Nozimjon Ne‘madjon o‘g‘li  
Namangan Davlat Texnika Universiteti  
o‘qituvchisi

## Аннотация

Ushbu maqolada yer osti himoya inshootlari tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar va harbiy tahdidlardan himoyalaniş uchun quriladigan strategik ob‘ektlar va yuqori darajadagi xavfsizlikni ta‘minlab, yadroviy portlashlar, zilzila, bo‘ron va boshqa favqulodda holatlarda ishonchli boshpana vazifasini bajaruvchi himoya inshootlari haqida so‘z borgan.

**Kalit so‘zlar:** metropolitenlar, shaxtalar, radiatsiyadan saqllovchi boshpana, favqulodda vaziyatlar, kimyoviy trevoga, havo trevogasi, zvenolar.

## ЗАЩИТНОЕ СНАРЯЖЕНИЕ, ИСПОЛЬЗУЕМОЕ ВО ВРЕМЯ АВАРИЙНО-СПАСАТЕЛЬНЫХ ОПЕРАЦИЙ

Моминджонов Нозимджон Немаджон оглы  
Наманганский инженерно-строительный институт  
учитель

## Абстрактный

В статье рассматриваются подземные защитные сооружения — стратегические объекты, возводимые для защиты от стихийных бедствий, техногенных катастроф и военных угроз, а также защитные сооружения, обеспечивающие высокий уровень безопасности и служащие надежным укрытием в случае ядерных взрывов, землетрясений, ураганов и других чрезвычайных ситуаций.

**Ключевые слова:** метрополитены, шахты, радиационное убежище, чрезвычайные ситуации, химическая сигнализация, воздушная сигнализация, связи.

## **PROTECTIVE STRUCTURES USED DURING EMERGENCY RESCUE**

Mo'minjonov Nozimjon Ne'madjon oglu  
Teacher of Namangan Engineering and Construction Institute

### **Annotation**

This article discusses underground protective structures, strategic facilities built to protect against natural disasters, man-made disasters and military threats, and protective structures that provide a high level of security and serve as a reliable shelter in nuclear explosions, earthquakes, storms and other emergencies.

**Keywords:** metros, mines, radiation shelter, emergency situations, chemical alarm, air alarm, links.

Aholini radiatsiyadan muhofaza qilish maqsadida turli xildagi inshootlar mavjud. Muhofaza inshootlari aholini muhafazalovchi ishonchli vositadir. Bu inshootlar aholini turli tusdagi favqulodda vaziyatlardan hamda ommaviy qirg'in qurollarning ta'sir etish omillaridan saqlaydigan boshpana hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aholini fuqaro muhofazasi himoya inshootlarida yashirish kelib chiqishi mumkin bo'lgan ko'plab yo'qotishlarni olidini oluvchi eng samarali usulidir. Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganida fuqaro muhofazasining "Havo trevogasi", "Radiatsiyaviy xavf" va "Kimyoviy trevoga" komandalari beriladi.

"Kimyoviy trevoga" komandasi berilganida panajoylarga yashiruvchilarga ob'ektning fuqaro muhofazasi xodimlari, fuqaro muhofazasi shtabi xodimlari tomonidan shaxsiy himoya vositalarini tarqatishni tashkil etishlari kerak.

Panajoylarga kirish to'g'risida buyruqni ob'ekt rahbari-fuqaro muhofazasi boshlig'i berishi kerak. Agarda favqulodda vaziyat sodir bo'lgan vaqtda aholining panajoylarga o'z vaqtida etib kela olmagan qismi panajoylarga kirishdan oldin ularga panajoyning maxsus joyida qisman dezinfeksiya qilinadi. Panajoylarda aholi joylashishi uchun strelkalar o'rnatilgan bo'ladi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan hududlardan jabrlanganlarni yoki jabrlanish ehtimoli tug'ilganda aholini panajoylarga joylashtirish tadbirlarini qoniqarli va samarali olib borish maqsadida ob'ekt fuqaro muhofazasi va fuqaro muhofazasi shtabi xodimlaridan iborat bo'lgan zvenolar tuziladi. Panajoylarga aholini tartib bilan, kolonnalarga ajratgan holda olib kiriladi. Aholini yadro portlashining hamma omillaridan, shuningdek kiyoviy va bakterial qurollaridan saqlash uchun mo'ljallangan germetik turdagi himoyalangan binolar boshpanalar deyiladi. Boshpanalar betondan yoki temir betondan er ostiga quriladi. Boshpanalarning himoya qilish xususiyati 100% gacha bo'ladi.

Zarba to'liqini ta'siridan himoya qilish xususiyatiga qarab boshpanalar quyidagi sinflarga bo'linadi:

1-sinf -5kg/kv sm gacha.

2-sinf - 3 kg/kv sm gacha.

3-sinf - 2kg/kv sm gacha.

4-sinf - 1kg/kv sm gacha.

Boshpanalar sig'imiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

a) kichik boshpana-150 nafar kishilarga mo'ljallangan;

b) o'rtacha boshpana-150-450 nafar kishilarga mo'ljallangan;

v) katta boshpana-450 va undan ortiq miqdordagi kishilarga mo'ljallangan..

Boshpanalar joylashishiga qarab 2 xil ko'rinishda bo'ladi:

a) qurilmalar tarkibida (er to'lada);

b) ayrim qurilmalar (mustaqil qurilgan).

Boshpanalar qurilish muddatiga ko'ra 2 turga bo'ladi:

- a) tinchlik davrida qurilgan boshpanalar;
- b) dushman hujumi xavfi tugʻilganda qurilgan boshpanalar.

Boshpana binolarining tagida yoki er ostiga alohida quriladi. Boshpanalarning tepasi juda pishiq va mustaxkam, devorlari zarb toʻlqiniga va singuvchi radiatsiyaga chidamli boʻlishi kerak. Tashqaridan zaharlangan havo kirmasligi uchun germetik ravishda ishlangan boʻlishi zarur. Boshpanaga kirish uchun 3 ta eshik quriladi. Birinchi eshik metaldan pishiq ishlanadi, qolgan 2 tasi gaz oʻtkazmaydigan materiallardan ishlangan boʻlishi kerak. Eshiklar zich yopilishi uchun chetiga rezina yopishtiriladi. Bu eshiklar orasida 2 ta dahliz hosil qilinadi. Kirish eshiklaridan tashqari, kirish joylari imoratlar qulashi natijasida bekilib qolgan hollarda foydalanish uchun er tagidan gʻisht, temir-beton teshik quvurlar qurilishi kerak. Boshpanalarda ichimlik suvi quvurlari, kanalizatsiya, telefon, radio, elektr toki, ayrim asboblari va yongʻinga qarshi asboblari boʻlishi shart. Bundan tashqari DP-5 turidagi dozimetr asbobi va kimyoviy razvetka asboblari ham boʻlishi kerak. Boshpanaga yashirinuvchilar uchun 0,5-1,8 m. oʻlchamdagi 2 yoki 3 qavatli soʻrilar va oʻtirish uchun 45-55 sm oʻlchamdagi oʻrindiqlar oʻrnatilishi lozim. Bir nafar yashirinuvchi uchun joy meʼyori 0,5m.kv. ni tashkil qiladi.

### **Xulosa**

Yer osti himoya inshootlari insonlarni va muhim infratuzilmani tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar hamda harbiy tahdidlardan himoya qilish uchun moʻljallangan muhim inshootlardir. Ular yuqori darajadagi xavfsizlikni taʼminlab, yadroviy portlashlar, raketa hujumlari va boshqa xavfli holatlarga bardosh bera oladi. Bunday inshootlar maxsus mustahkamlangan materiallar bilan qurilib, bosim va zarbalarga chidamlilik xususiyatiga ega.

Yer osti inshootlari tabiiy ofatlar, jumladan, zilzila, tornado, kuchli boʻron va suv toshqinlari kabi holatlarda aholining xavfsizligini taʼminlaydi. Bu turdagi boshpanalar harbiy va strategik jihatdan ham muhim boʻlib, harbiy harakatlar

davomida qo‘shinlar va aholini himoya qilish, muhim davlat boshqaruv markazlarini saqlash uchun keng foydalaniladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘.R. Yo‘ldoshev, O.D. Rahimov, R.T. Xo‘jaqulov, O.T. Hasanova “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. “Davr nashriyoti” Toshkent-2013
2. Mo‘Minjonov, N. N. (2024). XAVFSIZ HARAKATNI TASHKIL ETISHDA MEHNAT MUHOFAZASI FANINI O‘QITISHNI O‘RNI. Экономика и социум, (6-1 (121)), 821-824.
3. Mashrabboyivich, M. S. (2024). TEXNIK VOSITALARDAN CHIQUYOTGAN SHOVQINNING INSONLARGA BO‘LAYOTGAN TA‘SIRINI O‘RGANISH. Строительство и образование, 3(5), 131-136.
4. Mo‘Minjonov, N. N. (2024). ISHLAB CHIQUYOTGAN ZARARLI MODDALARNI AHOLI TURMUSH TARZIGA TA‘SIRI. Экономика и социум, (12-1 (127)), 254-257.
5. Mominjonov, N. N. (2023). ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISHI NATIJASIDA INSONLARGA BO‘LAYOTGAN TA‘SIRI. Экономика и социум, (11 (114)-1), 226-230.